

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020. San.118.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**SULTANOVA GULCHEXRA OZODOVNA**

**“ICHAN QAL’A” DAVLAT MUZEY- QO‘RIQXONASIDAGI AMALIY  
SAN’AT ASARLARINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy ob’yektlarni  
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Sultanova Gulchexra Ozodovna**

“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at asarlarini muzeylashtirish masalalari.....5

**Султанова Гулчехра Озодовна**

Вопросы музеефикации произведений прикладного искусства в государственном музее-заповеднике «Ичан кала».....24

**Sultanova Gulchekhra Ozodovna**

Issues of museumification of applied art works at the “Ichan Kala” state museum-reserve .....47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020. San.118.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**SULTANOVA GULCHEXRA OZODOVNA**

**“ICHAN QAL’A” DAVLAT MUZEY- QO‘RIQXONASIDAGI AMALIY  
SAN’AT ASARLARINI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy ob’yektlarni  
konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/San155-raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta til (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)da Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://www.stateartmuseum.uz>)da hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qurbonova Dilafruz Abdirashidovna,**  
tarix fanlari doktori (DSc)

**Rasmiy opponenlar:**

**Kuryazova Darmon Turayevna,**  
tarix fanlari doktori (DSc)

**Baybosinova Seniya Sarsenbaevna,**  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/09.07.2020.San.118.01-raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16-uy. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi majlislar zali. Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40; e-mail: [tmi2007@mail.ru](mailto:tmi2007@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san’at muzeyi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16-uy.). Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**B.V. Xasanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**V.S. Fayziyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**A. A. Madraimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d. professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahonning taraqqiy etgan davlatlarida moddiy-madaniy merosni jahon tajribalari asosida konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash, muzeylashtirish masalalariga e'tibor yanada kuchaydi. Umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'atining an'anaviy xususiyatlarini saqlab qolish, amaliy san'atga oid muzey eksponatlarini targ'ib qilish, turli xil ekspozitsiyalar, ko'rgazmalar tashkil qilish ham sohaning rivojini ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari madaniy merosni muzeylashtirish masalalariga alohida ahamiyat qaratmoqda. Moddiy-madaniy boyliklar va muzey ashyolarini saqlash, ta'mirlash hamda zavonaviy ekspozitsiyalar yaratish, ularni kelgusi avlodga o'z holicha yetkazish asosiy muammolar sirasiga kiradi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ahamiyati ortib borayotgan bugungi globallashuv jarayonida moddiy hamda madaniy yodgorliklarni keng ommaga targ'ib qilish, ularni innovatsion texnologiyalar asosida namoyish etish hamda muzeylashtirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bir qator rivojlangan davlatlar muzeylari amaliy san'at asarlarini estetik va ta'limiy jihatlarini taqdim etish, shuningdek, ta'limiy va targ'ibot ishlarini amalga oshirish, tashrifchilarga amaliy san'atning ahamiyati hamda an'analarini asrash bo'yicha turli seminarlar, interaktiv darslar va maxsus yo'naltirilgan ekskursiyalar o'tkazish, audiogidlar hamda virtual reallik texnologiyalarini keng qo'llashga katta ahamiyat qaratmoqdalar. Muzey faoliyatida innovatsion texnologiyalar qo'llanilib, san'at asarlarini raqamlashtirish orqali ularni onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikka taqdim etish tendensiyasi rivojlanmoqda. Hozirgi kunda xorijiy davlatlar ilmiy tadqiqot institutlari muzeylarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muzey kolleksiyalarini raqamlashtirish, onlayn namoyish qilish, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari, interaktiv multimedia, sensorli ekranlar orqali namoyish qilish, sun'iy intellekt yordamida san'at asarlarining haqiqiylikni aniqlash, huquqlarini himoya qilish uchun NFT va blokcheyn texnologiyalarini, muzeylarda xavfsizlikni oshirish, tashrifchilar oqimini tahlil qilish, energiya tejamkorligini ta'minlash maqsadida aqlli muzeylar va IoT (Internet buyumlari) texnologiyalarini qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ayniqsa, xorijiy davlatlar muzeylari madaniy merosni keng ommaga yetkazish hamda tashrif buyuruvchilarga qiziqarli va interaktiv tajriba yaratilishiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda eksponatlarni raqamlashtirish, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari va sun'iy intellekt kabi texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratmoqdalar.

Respublikada so'nggi yillarda xalqning tarixiy, badiiy va madaniy merosini saqlash, kelajak avlodga yetkazish, yosh avlodni umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"<sup>1</sup>. Bu borada moddiy-madaniy merosni jahon tajribalari asosida konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash, muzeylashtirish masalalari hamda ularni

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29.

innovatsion texnologiyalar asosida namoyish qilish, keng ommaga targ'ib qilish, yosh avlodni milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirish orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O'ziga xos qadimiy an'analarga ega bo'lgan Xorazm madaniyati va san'ati, moddiy - madaniy merosni tadqiq etish, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'naviy yuksalishiga oid adabiyotlar, al'bom-kataloglarni o'rganish hamda jamiyatga taqdim qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi"gi Farmoni, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-sonli "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli "2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari<sup>2</sup> hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorazm amaliy san'atining rivojlanishi, badiiy xususiyatlari, an'analari va tarixiy-madaniy yodgorliklarini o'rganish, ularni muzeylashtirish masalalari san'atshunos, tarixchi, arxeolog, etnograf hamda muzeyshunoslar tadqiqotlarida bayon etilgan, ammo ushbu ilmiy izlanishlarda muzeylardagi amaliy san'at ashyolari to'g'risida qisman to'xtalib o'tilgan, xolos. O'zbekistonda muzey ishining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini aks ettiruvchi hamda "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi tarixi to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasidagi amaliy san'at asarlarining muzeylashtirilishi hamda kolleksiyalarning shakllanishi to'g'risida aniq bir tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Muzeydagi milliy merosimiz bo'lgan amaliy san'at namunalarini asrab-avaylash va muzeylashtirilgan ob'yektlarda turizmning shakllanishi masalalariga oid bir qancha ilmiy izlanishlar hamda ilmiy tadqiqot materiallari, kitob-albomlar va arxeologik ekspeditsiya hisobotlari mavjud bo'lib, ular mavzuni o'rganish va masala

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-iyulda qabul qilingan "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi"gi Farmoni, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi", 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son "2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

yechimini topishda yaqindan yordam beradi. Tadqiqot ishi mavjud ilmiy adabiyotlar va turli mutaxassislar tomonidan o'rganilishiga qarab, uch guruhga bo'lib o'rganildi:

1. Mavzuning tarix tadqiqotlarida yoritilishi.

2. San'atshunoslik tadqiqotlari.

3. Muzeyshunoslik tadqiqotlari.

Jumladan, S. Tolstov, Y. G'ulomov, I. Jabborov, K. Abdullayev, A. Abdurasulov, K. Xudoyberganov, T. Abdullayev, S. To'rayeva, Sh. Nurullayeva, H. Xudaybergenov, D. Bobojonov, S. Samandarova, U. Bekimmetov, H. Yusupov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida Xorazm tarixining madaniy jarayonlari, jumladan hunarmandchiligi, muzeylar faoliyati tarixiy jihatdan yoritilgan. Ammo tarixga oid adabiyotlarda amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalariga e'tibor qaratilmagan.

Shuningdek, G. Pugachenkova, L. Rempel, M. Rahimov, V. Moshkova, D. Faxreddinova, A. Sokolova, G. Derviz, I. Jdanko, T. Abdullayev, A. Hakimov, O. Sultonov, Sh. Shoyoqubov, S. Bulatov, K. Akilova, O. Xo'janioyozova, E. Gyul, S. Aliyeva, R. Fatxullayev, M. Abdullayev, B. Nodir, B. Dadamuhamedov, O. Qambarova va boshqa olimlarning asarlarida mavzu san'atshunoslik jihatidan tadqiq qilingan. Qolaversa, L. Mankovskaya, I. Notkin, V. Bulatova, P. Zohidov, I. Azimov, G. Durdiyeva, N. Kaliyev asarlari Xorazm me'moriy obidalarini qurilish va bezalishini o'rganishga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, N. Sodiqova, N. Habibullayev, R. Almeyev, J. Ismoilova, B. Xasanov, Z. Rahimova, M. Bekmurodov, M. Rashidova, I. Ilalov, D. Qurbonova, D. Kuryazova, M. Muhammedova, G. Orifjonova, H. Komilova, U. Rahmatullayeva va boshqalarning asarlari muzeyshunoslik tadqiqotlariga bag'ishlangan. Ammo ushbu mualliflarning ishlarida "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi faoliyati, Xorazm amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari yoritilmagan.

Shuning uchun O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish butunjahon jamiyati kitob-albomlari jahon va O'zbekiston muzeylari hamda shaxsiy kolleksiyalar materiallari asosida yaratilgan "O'zbekiston madaniy merosi – jahon to'plamlarida" ko'p jildli turkumning "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi to'plamlarida" kitob-albomi<sup>3</sup> materiallari ilmiy tadqiqot uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, qadimiy va navqiron Xiva shahri hamisha xorijiy olimlar e'tiborini o'ziga tortgan. Shuning uchun Xorazm amaliy-bezak san'ati bo'yicha ba'zi ma'lumotlar xorijlik sayyohlar va olimlarning asarlarida ham keltirilgan<sup>4</sup>.

Mavzuning o'rganilishi I bobning birinchi bo'limida batafsil keltirilganligi bois, bu o'rinda adabiyotlar sharhi qisqa bayon etildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining ilmiy tadqiqot rejalari muvofiq "O'zbekiston tarixi davlat muzeyidagi noyob eksponatlarning 3D animatsiyali virtual galereyasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

<sup>3</sup> "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami. – Toshkent: "Silk Road Media" • "East Star Media", 2021. – 592-b.

<sup>4</sup> Mac Cahan I.A. Xive seyahatnamasi va tarixi. – Izmir: Akademi kitabevi, 1995; Karim Kamal Helal. The Remaining Islamic Madrasahs of Khiva City in Uzbekistan Republic. – Helwan University, Cairo 1441 A.H. / 2020 A.D. – P. 564.

**Tadqiqotning maqsadi** “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at asarlarining muzeylashtirilishi jarayonlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at asarlarini muzeylashtirish masalalarini ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari, muzey hisobotlari, jonli suhbatlar orqali tadqiq etish;

shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan Xorazm amaliy san’atiga doir hali ilmiy muomalaga kiritilmagan ashyolarni ilmiy pasportlash, taniqli ustalar hayoti va ijodini yoritib berish;

xorijiy ko‘rgazmalarda namoyish qilingan muzey eksponatlarini o‘rganish, ilmiy tahlil etish;

Xorazm vohasida madaniy turizmning rivojlanish jarayonlarida amaliy san’at asarlarining ahamiyatini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi va shaxsiy kolleksiyalardagi amaliy san’at asarlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at asarlarini muzeylashtirish masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy tahlilning tarixiy va tavsifiy yondashuvlari, qiyosiy hamda statistik tahlil, suhbat kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at ashyolari Xorazm amaliy-bezak san’atining maishiy turmush bilan bog‘liq: kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, gilamdo‘zlik, kiyim-kechak tayyorlash; me‘moriy bezaklar bilan bog‘liq: koshinpazlik, yog‘och, ganch va marmar o‘ymakorligi turlari rivojlanganligini, amaliy-bezak san’ati rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, savdo-sotiq, ustoz-shogird, qo‘shnichilik munosabatlari, xususan Eron, Buxoro hamda turkman-qoraqalpoq an’analari ta’sir o‘tkazganligi asoslangan;

muzeyda Xorazm tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, san’ati, hunarmandchiligi hamda adabiyotini aks ettiruvchi ekspozitsiyalar yaratishda – kulolchilik va koshinpazlik, mis kandakorligi, zargarlik, qurol-aslahalar, yog‘och, ganch hamda marmar o‘ymakorligi buyumlari, chinni buyumlar, gilamlar, cholg‘u asboblari, liboslar, to‘qimachilik buyumlarining muhim ahamiyati dalillangan;

shaxsiy kolleksiyalar, xususan, O.Sultonov, A. Umarov, Sh. Shoyoqubov, R. Sultonov kabi kolleksionerlarda saqlanayotgan badiiy qiymatga ega bo‘lgan muzeylarda uchramaydigan, taniqli ustalar ijodiga taalluqli Xorazm amaliy san’atining kandakorlik, kulolchilik, yog‘och, ganch, tosh o‘ymakorligi namunalari, voha ustalari ijodi hamda faoliyatiga doir ma’lumotlar ilk bora ilmiy muomalaga kiritilgan;

muzeylarda zamonaviy ekspozitsiyalar va ko‘rgazmalar tashkil etish bugungi kunning talabi ekanligi, zamonaviy texnologiyalar joriy etish orqali sayyohlar uchun xizmatlar sifatini oshirish kerakligi, shu maqsadda “Ichan-qal'a” davlat muzey-qo‘riqxonasidagi amaliy san’at asarlarining muzeylashtirishga oid hujjatlarini raqamlashtirish, ilmiy pasportlarini mutaxassislar yordamida to‘liq shakllantirish, amaliy

san'at asarlarini saqlash hamda ommalashtirish va targ'ib qilish masalalari muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Ichan qal'a” muzey qo'riqxonasining “Amaliy san'at” va boshqa bo'limlar ekspozitsiyalarini boyitish, reekspozitsiya qilish hamda amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish ishlarini ilmiy - uslubiy jihatdan takomillashtirgan;

kandakorlik, kulolchilik, yog'och, ganch va tosh o'ymakorligi san'ati namunalarining tavsifi, vohaning taniqli ustalari ijodi hamda faoliyatiga doir materiallardan oliy o'quv yurti talabalari uchun tarix, san'atshunoslik va muzeyshunoslik ixtisoslik fanlari doirasida o'quv adabiyotlar hamda ma'ruzalar tayyorlashda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuv usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, san'atshunoslikning sinalgan usullari hamda nazariy yondashuvlarning qo'llanilganligi, “Ichan qal'a” muzeyida saqlanayotgan eksponatlar, fondagi boy artefaktlar, amaliy san'at asarlari va ularning tahliliga bag'ishlangan ishlar, hisobotlar, joriy arxivlardagi boshqa materiallar va katalog kabi birlamchi manbalarga asoslanganligi, ilmiy-amaliy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati amaliy san'at asarlarini san'atshunoslik va muzeyshunoslik jihatidan tadqiq qilishda, muzeylashtirish va ko'rgazmalar tashkil qilishda manbaviy asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Xorazm amaliy san'ati va ustalari ijodini o'rganish, muzeydagi madaniy meros bilan yaqindan tanishish uchun teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, hujjatli fil'mlar, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar yaratishga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasidagi amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

“Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasida amaliy san'at asarlarining tadqiqi Xorazmda amaliy-bezak san'atining maishiy turmush bilan bog'liq: kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, gilamdo'zlik, kiyim-kechak tayyorlash; me'moriy bezaklar bilan bog'liq: koshinpazlik, yog'och, ganch va marmar o'ymakorligi turlari rivojlanganligini, amaliy-bezak san'ati rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, savdo-sotiq, ustoz-shogird, qo'shnichilik munosabatlari, xususan Eron, Buxoro, turkman-qoraqalpoq an'analari ta'sir o'tkazganligi kabi ma'lumotlaridan zamonaviy muzeylashtirish tamoyillari asosida yangi ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etishda foydalanilgan. Xorazm amaliy san'ati tarixi, an'analari, maktablari, o'ziga xos xususiyatlari, ustalar ijodi, amaliy san'at asarlari tahlili materiallaridan, muzey ekspozitsiyalarini takomillashtirishga doir tadqiqotlaridan “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyatida qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari materiallaridan “Ichan-qal'a” davlat muzeyqo'riqxonasining Amaliy san'at bo'limini boyitishda, muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari tomonidan maktablarda ochiq darslar, ekskursiyalar o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 22-oktabrdagi 02-05/3970-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,

tashrifchilar va keng aholi, ayniqsa, yoshlarda madaniy merosga hurmatni shakllantirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidagi noyob eksponatlarning 3D animatsiyali virtual galereyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida ham qo‘llanilgan. Loyihada tadqiqot ishiga doir muzeyda Xorazm tarixi, madaniyati, san’ati, hunarmandchiligi va adabiyotini aks ettirivchi ekspozitsiyalar yaratishda qurol-aslahalar, kulolchilik hamda koshinpazlik, mis kandakorligi, yog‘och, ganch va marmar o‘ymakorligi buyumlari, zargarlik, chinni buyumlar, gilamlar, cholg‘u asboblari, liboslar, to‘qimachilik buyumlari to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan foydalanilgan hamda loyiha samaradorligiga xizmat qilgan. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi faoliyatida Xorazm amaliy san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va madaniy hayotidagi o‘rni, mazkur hududga xos bo‘lgan milliy kiyimlar, voha do‘ppilari, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, kandakorlik buyumlaridagi badiiy bezaklar tahlili, milliy kiyimlar tikuvchi hunarmandlar va bugungi kunda ushbu san’at turlarini davom ettirib kelayotgan ustalar hamda ularning ijodiy ishlari borasidagi ma’lumotlardan foydalanilgan (O‘zbekiston Badiiy akademiyasining 2024-yil 21-noyabrdagi 03-09/135-1664-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, olingan xulosalar mazkur loyihaning ilmiy ahamiyatini oshishiga xizmat qilgan;

keyingi yillarda Hukumatimiz tomonidan hunarmandlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, berilgan imtiyozlar natijasida amaliy-bezak san’atining yuksalayotganligi, usta-hunarmandlar sonining ortganligi, bularning natijasida sayyohlar sonining ko‘payib borayotganligi, san’at bozorining rivojlanganligi xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, muzey fondida saqlanayotgan noyob eksponatlar xorijda o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarda namoyish qilish, muzeylashtirilgan obyektlarda sayyohlikning takomillashtirish mezonlari hamda taraqqiyot omillarini aniqlash madaniy turizmni rivojlanishiga asos bo‘lishi haqidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Ibtido” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston telekanalining 2024-yil 13-dekabdagi 02-31-1291–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, madaniy merosni, xalq amaliy san’atini keng targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

shaxsiy kolleksiyalar, xususan, O.Sultonov, A. Umarov, Sh. Shoyoqubov, R. Sultonov kabi kolleksionerlarda saqlanayotgan Xorazm amaliy san’ati asarlariga oid kandakorlik, kulolchilik, yog‘och, ganch, tosh o‘ymakorligi san’ati namunalari, vohaning taniqli ustalari ijodi hamda faoliyatiga doir ma’lumotlardan amaliy san’at asarlari targ‘ibotida foydalanilgan. Xorazm viloyat teleradiokompaniyasining “Xorazmnoma” dasturlarini tayyorlashda qo‘llanilgan. (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-maydagi 428-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilik orasida ilk bora shaxsiy kolleksionerlarda saqlanayotgan Xorazm amaliy san’ati namunalari va ustalari ijodi to‘g‘risida yangi ilmiy ma’lumotlarni yoritishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Shu jumladan, Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (ulardan 6 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va ilmiy ishning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Xorazm amaliy san'atining tadqiq etilishi**" deb nomlanib, 2 ta bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim "**Xorazm amaliy san'atiga oid ilmiy adabiyotlar sharhi**" deb nomlanib, unda Xorazm amaliy san'atini o'rganish bilan bog'liq turli adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari, kataloglar, gazeta va jurnallardagi maqolalar ko'rib chiqilgan va sharhlangan.

Xorazm madaniyati va san'atini o'rganishga ko'plab olimlar, turli mutaxassislar o'z hissasini qo'shgan. Xorazm amaliy san'ati, tarixiy-madaniy yodgorliklari uzoq yillar davomida arxeolog, etnograf, tarixchi, muzeyshunos va san'atshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Adabiyotlarni mavzu jihatdan 3 guruhga bo'lib o'rganish mumkin: 1) tarix tadqiqotlari, 2) san'atshunoslik tadqiqotlari, 3) muzeyshunoslik tadqiqotlari.

Xorazm san'atiga oid tarix tadqiqotlari – Xorazm madaniyatini o'rganishni XX asrning boshlarida tarixchi olimlar boshlab bergan. A. Kun, P. Ivanov, A. Yakubovskiy, S. Tolstov, Y. G'ulomov shular jumlasidandir. K. Xudoyberganov T. Abdullayev, S. To'rayeva, Y. Rahmanova, Sh. Nurullayeva, D. Bobojonov, H. Xudayberganov, S. Samandarova, U. Bekimmetov, Sh. Matyoqubov va boshqalarning asarlarida mavzuning ayrim jihatlari yoritilgan. Tahlillar natijasidan shuni ko'rish mumkinki, tarixchi va etnograflarning tadqiqotlari asosan Xorazm vohasi tarixi, san'ati, hunarmandchiligi, tarixiy obidalari, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi tarixini keng miqyosda o'rganishga qaratilgan. Yuqorida qayd qilingan adabiyotlar va tadqiqotlarda mavzuning asosan tarixiy jihatlari yoritilgan.

Shuningdek, A. Morozova, M. Rahimov, T. Abdullayev, D. Faxreddinova, A. Sokolova, G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko, A. Hakimov, K. Akilova, O. Sultonov, Sh. Shoyoqubov, O. Xo'janiyozova, E. Gyul, S. Aliyeva, M. Abdullayev, B. Nodir, O. Qambarova, B. Dadamuhamedov va boshqa mualliflar Xorazm amaliy-bezak san'atining kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, to'qimachilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa turlarini san'atshunoslik jihatidan tadqiq qilganlar.

Bundan tashqari, G. Pugachenkova, V. Bulatova, I. Notkin, L. Mankovskaya, I. Azimov, P. Zohidov, G. Durdiyeva, N. Kaliyev va boshqa mualliflarning tadqiqotlarida Xorazm me'morchiligiga oid ma'lumotlar bor. Tahlillar shuni ko'rsatadiki,

san'atshunoslar tomonidan Xorazm amaliy san'atining turli yo'nalishlari tadqiq qilingan. Ayniqsa, Xorazm kulolchiligi, zargarligi, kandakorligi, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik san'ati ko'p o'rganliganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Xorazm amaliy san'ati turlaridan ganch o'ymakorligi qisman o'rganilgan, tosh o'ymakorligi, gilamdo'zligi, matoga gul bosish san'ati haqida ma'lumotlar kam.

Qolaversa, N. Sodiqova, J. Ismoilova, B. Hasanov, R. Almeyev, D. Kuryazova, D. Qurbonova, K. Nishonova, M. Muhammedova, G. Orifjonova, M. Bekmurodov, M. Rashidova, I. Ilalov va boshqalarning ilmiy ishlarida O'zbekistonda muzeylashtirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Muzeyshunoslar tomonidan olib borilgan izlanishlarni, adabiyotlarni o'rganish natijasida O'zbekiston muzeylarini o'rganish bo'yicha izlanishlar, ayniqsa, mustaqillik yillarida ushbu sohaga qiziqish ancha ortganligini ko'rsatadi.

Birinchi bobning ikkinchi bo'limi ***“Xorazm amaliy san'atining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni”*** deb nomlanadi. Unda Xorazm amaliy san'ati turlaridan kulolchilik, yog'och, marmar va ganch o'ymakorligi, kandakorlik, zargarlik, gilamdo'zlik, matoga gul bosish va boshqa ko'plab turlarining vohada rivojlanishi va ularning ijtimoiy-madaniy hayotda tutdan o'rni yoritilgan.

Amaliy san'atning boshqa san'at turlaridan farqi shundaki, u san'at asari bo'lish barobarida kundalik turmushda muayyan maqsadda qo'llaniladi. Ya'ni amaliy san'at buyumlari ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois ham amaliy san'at xalqning turmush tarziga singib, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, amaliy san'atning me'morchilik bilan bog'liqligi (yog'och, ganch va marmar o'ymakorligi) uning kundalik turmushdagi ahamiyatini yanada oshiradi.<sup>5</sup>

Xorazmda kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, zargarlik, marmar o'ymakorligi, gilamdo'zlik, ganchkorlik, matoga gul bosish va boshqa ko'plab turlari asrlar osha rivojlanib, takomillashib, o'zga xos xususiyatlari mujassamlashgan markazlari shakllangan. Qadimdan vohada bir qancha kulolchilik markazlari mavjud bo'lgan. XIX asrga kelib Xorazm viloyatida Urganch, Xiva, Kattabog' va Xonqada kulolchilik markazlari o'z faoliyatini olib borgan. XX asrlar boshlarida vohada an'anaviy uslubda asosan uchta kulolchilik markazlari faoliyat olib borgan. Ular Xonqa tumanidagi “Madir” kulolchilik markazi, Yangiariq tumanidagi “Kattabog'” markazi va Ko'hna Urganch kulolchilik markazlari bo'lib, qadimiy Xorazm zangori kulolchilik an'alarini saqlagan holda sopol buyumlarini yaratganlar. Bu uchala markaz ustalari ishlab chiqargan buyumlar, o'zining shakli, koloriti va bezaklari hamda texnologiyasi bilan boshqa maktablarning sopol buyumlaridan ajralib turadi. Xorazm kulol ustalari qadimdan o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar.

Bugungi kunda Xorazm sirlangan kulolchilik an'analari viloyatning Xonqa tumanidagi Madir (Matchonovlar sulolasi) va Yangiariqdagi Kattabog' (Otajonovlar sulolasi) qishloqlarida joylashgan ikki yetakchi kulolchilik sulolasi vakillari tomonidan rivojlantirilmoqda.<sup>6</sup> Xonqa tumani Madir qishlog'ida Odilbek va Matchon Matchonovlar,

<sup>5</sup> Abdullayev M. S. Xorazm amaliy bezak-san'atining rivojlanish tarixi (XVI-XX asr boshlari). San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2018. – B. 19.

<sup>6</sup> Хакимов А. Прикладное искусство Узбекистана традиции и инновации. – Istanbul: Mega Basim, 2013. – С. 126 .

Yangiariqdagi Kattabog‘ markazida Bahodir Otajonov hamda Odilbek Rahimovlar faoliyat yuritmoqdalar.

Xorazmlik kandakor ustalar tomonidan yasalgan buyumlar o‘ziga xos hashamdorligi bilan ajralib turadi. Ular asosan yassi bo‘rtma naqsh solish texnikasidan foydalanishadi. Shakl va naqshlarning o‘ziga xosligi borasida Xorazm kandakorlik maktabi ancha barqaror xususiyat kasb etadi. Xorazm kandakorlari “turunj” (medalyon) va murakkab shakllar ifoda etilgan naqshlardan ko‘proq foydalanadilar. Xorazm kandakorligida keng tarqalgan suv uchun ishlatiladigan an’anaviy idishlardan biri qumg‘ondir. Xivaning suv uchun qo‘llanadigan qumg‘on idishi mutlaqo o‘zgacha shaklga ega bo‘lib, dastasiz, qorni noksimon va uzun ingichka bo‘yinlidir. Qumg‘on kabi bir qator misdan ishlangan buyumlar o‘z davrida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va ustalar tomonidan ko‘plab ishlab chiqarilgan. Muzeyda bunday buyumlar soni ko‘pchilikni tashkil qiladi. Xorazmda nafaqat selobcha, qumg‘on balki turli suv idishlardan ham keng foydalanilgan. Mis jomlar o‘ziga xos shakli va xususiyatlari jihatidan uy-ro‘zg‘or buyumlari orasida asosiy o‘rin egallagan. Odatda, bunday idishlar suv, sharbat, sharob, sut, qatiq, ayron solish uchun ishlatilgan.

Xorazm zargarlik buyumlarida qoraqalpoq va turkman zargarlik san‘ati bilan hamohanglik kuzatiladi. Xorazm, turkman va qoraqalpoq zargarlik buyumlari tuzilishi va mohiyatiga ko‘ra mos keladi, ammo Xorazm zargarligi asarlari har bir turi zargarlik buyumlariga shaklning nozik, mayda xususiyatlarini olib kirgan shahar zargarligi ta’sirida ma’lum o‘zgarishga uchragan. Ammo, asosiy farq ishlab chiqarish texnologiyasida kuzatiladi, ya’ni xorazmliklar kumush va oltinga o‘yma ishlov tushirishgan. Ular asosan, o‘z zargarlik buyumlarini marjon va feruza toshlari, rangli shishalar bilan bezatishgan bo‘lsa, qoraqalpoq va turkman zargarlik ashyolari yaxlit kumushdan ishlangan.

Xorazm qadimdan o‘zining boy madaniyati, shaharlari, betakror hunarmandchiligi bilan dong taratgan. Qo‘shni xalqlar bilan bo‘lgan umumiy chegara madaniyat hamda amaliy san‘at sohasida o‘zaro uyg‘unlashuvni ko‘rish mumkin. Voha an’anaviy milliy kiyimlari boshqa hudud liboslariga qaraganda o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. XX asr boshlariga qadar Xiva shahri to‘qimachilik va shoyini to‘qish bo‘yicha asosiy markaz hisoblangan. Shuningdek, bu hududda, nafaqat matolarni to‘qish, balki bo‘yash ishlari ham olib borilgan. Xorazm ayollari liboslarida yorqin ranglarni qo‘llashni ma’qul ko‘rishgan, jumladan, qizil rang ayollarning eng sevimli rangi hisoblangan. Qora, ko‘k va yashil ranglar, asosan erkaklar libosida qo‘llanilgan.

Xalq amaliy san‘atining bir turi sifatida kashtachilik Xorazm viloyatiga xos emas. Xorazm libosining o‘ziga xosligi – matoning sifati va badiiyligi bilan belgilanadi. Ko‘ylaklarning yoqasi va kesimini, lozim (ishton)ning manjetlarini, do‘ppi chetini bezab turgan rangli tasmalar keng tarqalgan bezak turlaridir. Xorazm do‘ppilari – taxyalarida kashtachilik bezaklari yo‘qligiga qaramay bayramona va tantanavor ko‘rinishga ega.

Xorazm gilamlarida uzun zangi (narvon), tuya bo‘yin, hayvon shoxi bezaklari keng qo‘llaniladi. Xorazmlik turkmanlarning gilamlarida har bir urug‘ning belgilarini, naqshlarining alohida shakllarini ko‘rish mumkin. Xivada bugun unutilib borayotgan hunarmandchilik turlari muvaffaqiyatli tiklanib, san‘at darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda gilam to‘qish ishlari uch xil yo‘nalishda davom ettirilmoqda: uyda gilam to‘qish,

qo'shma korxonalarda gilam to'qish hamda xususiy firmalarda gilam tayyorlash. Hozirgi kunda gilamlarning qadimgi naqsh bezaklarini va to'qish usullarini tiklash borasida amaliy ishlar olib borilmoqda hamda "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi hududidagi Yoqubboyxo'ja madrasasida ipak gilam to'qish ustaxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu ustaxonada Madrahim Matkarimov boshchiligida to'quvchi qizlar ipakdan tabiiy ranglardan foydalanilib turli xil ko'rinishdagi gilamlarni qo'lda to'qimoqdalar.

Bugungi kunda vohada amaliy san'atning ayrim turlariga ehtiyoj bo'lmaganligi sababli yo'qolib ketgan bo'lishiga qaramay, ko'pgina turlari qayta tiklanib, o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda rivojlanib, davr talablariga moslashib ijtimoiy va madaniy hayotda o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

**"Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasidagi amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari**" deb nomlangan ikkinchi bobida amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari hamda muzeyda Xorazm tarixi, madaniyati, san'ati, hunarmandchiligi va adabiyotini aks ettiruvchi ekspozitsiyalar yaratishda amaliy san'at asarlarining ahamiyati o'rganilgan.

Birinchi bo'lim *"Amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari"* deb nomlangan. Unda "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi ekspozitsiyalari misolida amaliy san'at asarlarini muzeylashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Bugungi kunda ko'pgina adabiyotlarda "muzeylashtirish" atamasining ham keng, ham tor ma'noda izohlanishini uchratish mumkin. Keng ma'noda – u biron bir obyekt, ko'chadigan yoki ko'chmas bo'lishidan qat'iy nazar, turgan joyida sun'iy madaniy - tarixiy muhitda, muzeyda joylashishi tushuniladi. Muзейlashtirish – yodgorlikni yaxshi saqlab qolishi va undan to'g'ri foydalanishning eng rivojlangan yo'li bo'lib qoldi.<sup>7</sup>

Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida to'plangan amaliy san'at asarlari ham o'z davrining asosiy madaniyatini ko'rsatuvchi, tarixdan guvohlik beruvchi namunalar hisoblanadi. Xiva hukmdori, tarixchi va yozuvchi Abulg'azi Bahodirxon (1645–1663) o'zining saroyida osori-atika buyumlarni to'plagan va ularni namoyish qilish uchun maxsus joy ajratgan. Xalq orasida bu joy "Ajoyibxona" deb atalgan.<sup>8</sup>

Xivada dastlabki muzey xonlik davridayoq shakllangan. "Ichan qal'a" (Xiva) muzeyiga 1920-yilda rasman asos solingan. Dastlabki muzey Toshhovli saroyida "Xalq muzeyi" nomi bilan ochilgan. 1969-yil Xiva "Ichan-qal'a" davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi tashkil qilingan. Muзей-qo'riqxonasi tashkil qilinishi va rivojlanishiga A. Boltayev, Y. Yusupov, M. Yoqubov, A. Ismagilov, Y. Ro'zmetov, madaniyat xodimlari T. Sereda, S. Yusupov hamda N. Sherovlar o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

"Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondi asosiy va ilmiy yordamchi fond buyumlari majmuidan iborat bo'lib, 2023-yil holatiga ko'ra, ularning umumiy soni 55796 ta. Jumladan: asosiy fond ashyolari – 40178 ta; ilmiy-yordamchi fond ashyolari -15148 ta; vaqtinchalik saqlash fondi ashyolari – 470 tani tashkil etadi<sup>9</sup>. 2024-yil hisobotlariga ko'ra, fond bo'limida jami ashyolar soni 56670 ta. Shundan asosiy fondagi ashyolar soni

<sup>7</sup> Ismoilova J., Muhamedova M. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. – Toshkent, 2013. – B. 129–130.

<sup>8</sup> Quryazova D. O'zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009.– B.17.

<sup>9</sup> IQDMQ fondining 2003-yil yarim yillik hisosboti. Muзей-qo'riqxonaning joriy arxivi

40307 ta; ilmiy-yordamchi fond ashyolari 15229 ta; vaqtinchalik saqlash fondi ashyolari – 1134 tani tashkil qiladi.<sup>10</sup>

Hozirgi kunda amaliy-bezak san'ati kolleksiyasining o'zida yog'och o'ymakorligi buyumlari – 320 ta, bosh kiyimlar – 116 ta, kiyim-kechaklar – 562 ta, kandakorlik buyumlari – 285 dona, ganch o'ymakorligi buyumlari – 39 dona, matoga gul bosish qoliplari – 20 ta, zargarlik buyumlari to'plami – 525 ta, marmar o'ymakorligi – 71 ta, sopol buyumlar – 843 ta, shuningdek, chinni buyumlar – 337 dona, jumladan, 96 ta – xitoy chinnilari, 159 ta – rus chinnisi, 86 ta – mahalliy chinnilar, to'qimachilik kolleksiyasi – 1000 dan ziyod, gilam va gilamdo'zlik buyumlari – 142 tani tashkil qiladi.<sup>11</sup>

Muzeylarda amaliy san'at asarlarini muzeylashtirishda uning birinchi bosqichi ularni to'g'ri aniqlash va to'liq ro'yxatga olishdir. Bu juda muhim qadam bo'lib, har bir asarning tarixiy, madaniy va badiiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

*Asarlarni tadqiq qilish va tavsiflash.* Ilmiy tavsiflash jarayonida kartochkaning mazmuni to'ldirilishi, aniqlashtirilishi va hattoki, o'zgartirilishi mumkin. Ilmiy tavsiflash ishlari muzey ilmiy xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ilmiy inventarga kiritiladigan barcha o'zgarishlar, xuddi kirish kitobidagi kabi rasmiylashtiriladi. Asarlarning ilmiy tavsifida fond raqami, inventar raqami, predmet nomi, predmet haqida ma'lumotlar; nechanchi asrga oidligi, agar ma'lum bo'lsa kimning asari, qanday materialdan yasalganligi, o'lchami, shakli, rangi, bezak turlari, muzeyga qachon keltirilganligi, haqida ma'lumotlar yoziladi.

*Asarlarni saqlash va konservatsiya qilish.* Muzeylardagi muhim masalalardan yana biri konservatsiya ya'ni, san'at asarlarini, arxeologik materiallarni, arxiv hujjatlarini va boshqa narsalarni uzoq vaqt sifatli saqlash tadbiri hisoblanadi. Buning uchun harorat, havoning namligi doimo bir xil, yorug'lik va ventilyatsiya bir me'yorda bo'lishi kerak, chang va hashoratlar kirishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu ishlar eksponatlarning fizikaviy, kimyoviy va texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Bugungi kunda asarlarni konservatsiya qilish masalalarida rivojlangan davlatlar tajribalariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Italiya, Fransiya, Germaniya, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning tajribalari amaliy san'at asarlarini konservatsiya qilishda ahamiyati katta bo'lib, ularning innovatsion yondashuvlari, yuqori darajadagi laboratoriyalari va ta'lim markazlari dunyo muzeyshunosligi uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

“Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasidagi amaliy san'atga oid ashyolarni saqlash, ayniqsa yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, gilamdo'zlik namunalarini o'z holicha saqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yog'ochdan ishlangan asarlarni har xil zararkurandalardan, yuqori namlikdan saqlash, kandakorlik buyumlarini saqlashda namlik darajasining me'yoriga e'tibor qartish juda muhim.

“Ichan qal'a” muzey qo'riqxonasida san'at asarlarini ta'mirlash uchun 2 nafar mutaxassis jalb qilingan. Biri yog'och o'ymakorligi bo'yicha bo'lsa, ikkinchisi rangtasvir asarlarini ta'mirlovchi mutaxassis. Muzey fondidagi amaliy san'at asarlarini ta'mirlash ishlari talab darajasida emas. Fondagi kulolchilik, gilamchilik, milliy kiyimlar, kandakorlik buyumlari ichida ta'mirtalablari ko'p uchraydi, yog'och o'ymakorlik

<sup>10</sup> IQDMQ. fondining 2024 -yil yarim yillik hisosboti. Muzey-qo'riqxonaning joriy arxivi.

<sup>11</sup> IQDMQA. Muzey-qo'riqxonaning joriy arxivi.

buyumlari ham ta'mirga muhtoj. Muzeydagi ta'mirtalab eksponatlarning umumiy soni 1150 tani tashkil qiladi.<sup>12</sup>

*Muzey ekspozitsiyasini tashkil etish.* Muzeylarda amaliy san'at asarlari ko'rgazmalarini to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ekspozitsiya shunday tashkil qilinishi kerakki, tashrifchilar har bir asarning nafaqat estetik go'zalligi, balki uning tarixi va qo'llanilishini ham to'g'ri tushunishlari mumkin bo'lishi lozim. Muзей predmetlari asosida ekspozitsiyalar tashkil qilinadi. Muзей ekspozitsiyasi – bu maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan muzey eksponatlarining namoyishi bo'lib, ular kompozitsion joylashtirilib sharhlar bilan to'ldirilgan, texnik va badiiy jihozlanib, umumiy muzeyning o'ziga xos xususiyatini yaratuvchi ijtimoiy ko'rinishdir.

Bugungi kunda "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibida 19 ta doimiy ekspozitsiyalar mavjud. Muзей fondida 56670 ta eksponat mavjud<sup>13</sup>.

Ekspozitsiya masalalarini amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratiladi: 1. Asarlarni tanlash va mavzuli guruhlash; 2. Asarlarni vizual namoyish qilish (eksponat joylashuvi); 3. Yorug'lik va atmosfera; 4. Ta'rif va axborot taqdim etish (ma'lumotlar va plakatlar); 5. Tashrifchilarning harakatlanish yo'nalishi; 6. Interaktivlik va zamonaviy texnologiyalar; 7. Asarlarning himoyasi va xavfsizlik masalalari; 8. Maxsus ko'rgazmalar va davriy ekspozitsiyalar.

Ekspozitsiya masalalari muzeylarning asosiy vazifalaridan biridir, chunki u madaniy merosni keng jamoatchilikka yetkazish vositasi hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ekspozitsiyalar orqali muzeylar tashrifchilarni nafaqat madaniy boyliklar bilan tanishtiradi, balki ularga ta'limiy va estetik ta'sir o'tkazadi, bu esa madaniy merosni asrash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

"Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida ayrim ekspozitsiyalar reekspozitsiya qilingan hamda yangilari tashkil qilinmoqda. 2023-yilda Muhammad Rahimxon madrasasida "Hukmdor va shoir" ekspozitsiyasi, Toshhovli saroyida esa "Milliy libosimiz – qadriyatimiz bezagi" ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'pgina muzeylar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, amaliy san'at asarlarini saqlash va namoyish qilishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqmoqdalar, jumladan "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xorazm amaliy san'ati namunalari ochiq osmon ostidagi muzeylarda muzeyshunoslik tamoyillariga tayangan holda muzeylashtirib kelinmoqda. Ya'ni, ashyolarni qabul qilish, ilmiy pasportini shakllantirish, saqlash, o'rganish, tadqiq va targ'ib etish, namoyish qilish kabi tamoyillardir. Har yili muzey fondini boyitish va yangi ekspozitsiyalar yaratish maqsadida amaliy san'at buyumlari sotib olinadi. Muzeydagi amaliy san'at asarlarini muzeylashtirilishi o'rganilganda ularning ilmiy ro'yxatlash va inventar kartochkalarini shakillantirishda ko'pgina kamchiliklar ham mavjudligi aniqlandi.

Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi bo'limi ***"Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi ekspozitsiyalari va ularni tashkil qilishda amaliy san'at asarlarini ahamiyati*** deb nomlangan bo'lib, unda muzeydagi ekspozitsiyalar va ularni

---

<sup>12</sup> IQDMQ 2023-yil hisoboti. Muзей-qo'riqxonaning joriy arxivi.

<sup>13</sup> IQDMQA 2024-yil yarim yillik hisoboti. Muзей-qo'riqxonaning joriy arxivi.

shakllantirishda amaliy san'at eksponatlarning ahamiyati o'rganilib, ayrim noyob san'at asarlari tahlil qilingan.

Hozirgi kunda "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida quyidagi ekspozitsiyalar va doimiy ko'rgazmalar faoliyat yuritmoqda: Qadimgi Xorazm ekspozitsiyasi, "Taxt zali" interyeri, Zarbxona interyeri, Xiva xonligi tarixi ekspozitsiyasi, "Dorul hikmat val maorif" yoki "Allomalar tarixi" ekspozitsiyasi, Tabiat bo'limi, Amaliy san'at ekspozitsiyasi, Hunarmandchilik ekspozitsiyasi, Xorazmning durdona bitiklari ko'rgazmasi, Mahobatli me'morchilik bo'limi, Xorazm musiqa san'ati tarixi bo'limi, Tabobat tarixi bo'limi, Madrasa tarixi bo'limi, Xalq ta'limi tarixi, Kulolchilik ko'rgazmasi, Nemis mennonitlari tarixi, Ogahiy uy-muzeyi, Avaz O'tar uy muzeyi, Xudoybergan Devonov uy muzeyi ekspozitsiyasi.

"Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi ekspozitsiyalarida Xorazm tarixi, madaniyati, hunarmandchiligi, san'ati va adabiyoti aks ettirilgan. Umumiy ilmiy konsepsiyaning asosiy maqsadi – ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan moddiy-madaniy va ilmiy merosi, milliy qadriyatlarini, ilmu – ma'rifatini o'rganish, saqlash, kelajak avlodga yetkazish va targ'ib qilishdan iborat.<sup>14</sup>

*Amaliy san'at bo'limi ekspozitsiyasi.* Amaliy san'at bo'limi dastlab 1970-yilda "Qozi kalon" madrasasida tashkil qilingan. Keyinchalik 1983-yilda Islomxo'ja madrasasiga ko'chirilgan. Madrasani usta Xudoybergan hoji qurgan, madrasa va minoraning koshin bezaklarini Eshmuhammad Xudoyberdi o'g'li, Xonqaning Madir qishlog'idagi ustalardan B. Vaisov va M. Madaminovlar ishlaganlar. Islomxo'ja madrasasida joylashgan Xorazm amaliy san'ati ekspozitsiyasi "Ichan-qal'a"dagi eng chiroyli va boyligi bilan ajralib turadi. Muzey ekspozitsiyasi 1983-yilda buyuk alloma, matematik olim Muhammad Xorazmiy tavalludining 1200 yillik yubileyiga bag'ishlab ochilgan. 1991-yildan keyin ekspozitsiya zallari, mustaqillik ruhida qaytadan reekspozitsiya qilindi. "Ichan-qal'a" davlat muzey qo'riqxonasining "Xorazm amaliy san'ati" bo'limi ekspozitsiyasining o'zida 398 ta eksponat namoyishga qo'yilgan. Ekspozitsiyada xalq amaliy san'atining 10 dan ortiq turini ko'rish mumkin. Jumladan yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, to'qimachilik, marmar, ganch o'ymakorligi, gilamdo'zlik, kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, ko'nchilik, pichoqchilik, zargarlik buyumlari namoyish qilinmoqda.

"Ichan – qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi fond xazinasini va ko'rgazma zallarida saqlanayotgan ayollarning ustki kiyimlari: partovus, ipak, shoyi va baxmaldan tikilgan to'nlar, XIX asr oxirida ipak matolar to'quvchi — jammoblar tomonidan tayyorlangan turma belbog', xotin-qizlar paranjisi (KP 699), nikoh ko'ylagi (KP 1566), olacha matolar (KP 6020/1), kimxobdan tayyorlangan ayollar yelagi (KP 1455), olacha matodan tikilgan erkaklar to'ni (KP 5040), erkaklar ridosi (KP 688) xivalik tikuvchilarning mahoratini namoyish etadi.

Muzey qo'riqxonasi Xalq amaliy san'ati bo'limida 25 ta gilam va gilamdo'zlik buyumlari o'rin olgan. Ushbu bo'lim ekspozitsiyasi XIX – XX asrlarga oid xalq ijodiyoti durdonalarining keng doirasini o'z ichiga oladi. Unda gilamlar muhim o'rin egallaydi. Gilamdo'zlikda nafaqat gilam, uy-ro'zg'orda ishlatiladigan gilam buyumlari ham

---

<sup>14</sup> Bobojonov D. "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi tarixi (1920–2020-yy.). Birinchi kitob. – Urganch: "Milleniumus print", 2024. – B. 110/.

to‘qilgan. Masalan: xurjun – yuk tashish uchun mo‘ljallangan, joynamoz-mehrobsimon naqshli gilamcha, namoz o‘qishga mo‘ljallangan; to‘rva xalta – idish-tavoq va mayda buyumlar saqlash uchun; chuvol – kiyim-boshlar saqlanadigan buyum.

Xorazm amaliy san‘atining “Zargarlik” ekspozitsiyasida XIX-XX asr boshlarida xorazmlik zargar ustalar tomonidan yaratilgan zargarlik asarlarini ko‘rish mumkin. Zargarlik buyumlarini asosan ayol kishilar ishlatadigan: bosh, bo‘yin, peshona, ko‘krak, bel, burun, quloq, chakka, bilak, barmoq taqinchoqlari bir majmuani tashkil qiladi. Ekspozitsiyaga peshonaga taqiladigan “tangaduziy”, quloqqa “zirak”, boshga “taxyaduziy”, ko‘krak bezagi – “shavkala”, “tumor”, “butuntirnoq”, “kalitbog‘i”, “sochpopuk”, “bilakuzuk”, barmoq bezaklari “uzuk” va boshqa taqinchoqlar qo‘yilgan.

“Ichan-qal‘a” muzey qo‘riqxonasining “Amaliy san‘at”, “Tabobat tarixi”, “Madrasa tarixi”, “Xiva xonligi tarixi” va “Xorazm hunarmandchiligi” bo‘limlarida boshqa amaliy san‘at turlari qatorida kandakorlik buyumlari ham ekspozitsiyalardan keng o‘rin olgan. Bu yerda asosan XIX- XX asr boshlarida tayyorlangan qumg‘on, tung, samovar, tuncha patnis, chilim, choynak, qopshirma, qozon, chelak, laganlar, qoshiq, mangal, turli xil ko‘rinishdagi sulopchalar va jom idishlar namoyishga qo‘yilgan.

